



Uzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi ishlarini rivojlantirish qoshqarmasi

maktabgacha va maktab ta'limi tasarrufidagi

maktab ta'lim tashkiloti Katta tarbiyachisi

ning takomillashtirish dasturini amalga oshirishda

o'quv dasturini amalga oshirishda "Bizning xayrli (ezgu) ishlarni amalga oshirish" mavzusida tashkilla

# FAOLIYAT ISHLANMASI

*(Noyabr oyining 4-haftasi)*

# veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.**

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

*Hujjat word variant doc formatda beriladi.*


**Katta guruhlarga noyabr oyi 4-hafta faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:  
@maktabgacha\_tt  
Narxi: 5000**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**

**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**

**To'liq holda olganingizdan so'ng:**

**Faqat o'zingiz uchun foydalaning.**

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**

**Internet veb-saytlarga joylamang.**

**Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**

**Guruhi:** *Katta guruhlar uchun*

**Oy mavzusi:** "Transport. Ko'cha harakati qoidalari.

**Hayot xavfsizligi asoslari**

**Hafta mavzusi:** Bizning xayrli (ezgu) ishlarimiz.

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi bilimlarini mustahkamlash;

**Tarbiyaviy:** yoshlarga ko'proq yaxshilik qilish haqida tushuntirish, ezgulik va yomonlikni farqlashga o'rgatish;



**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning nutqini o'stirish, ularning o'z fikrini bildirishini oshirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli suratlar.

Ta'limiy faoliyatning borishi

**Tarbiyachi:** - Assalomu alaykum, mening zukko va qadrdon tarbiyalanuvchi- larim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda sizlar bilan nima yaxshi-yu, nima yomon mavzusida suhbatlashamiz. Hozir men sizlarga Erkin Vohidovning "Kamtarlik haqida" nomli she'rini o'qib beraman. Sizlar esa she'rni diqqat bilan eshitinglar, keyin yana suhbatni davom ettiramiz.

## KAMTARLIK HAQIDA

Erkin Vohidov

Garchi shuncha magʻrur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u hayo nimaga kerak?



Kamtarin boʻl, hatto bir qadam Oʻtma gʻurur ostonasida  
Piyolani inson shuning-chun Oʻpar doim peshonasidan.

**Tarbiyachi:** - Bolalar, kamtarin inson hammaga yoqadi. Men kamtarni kibr-u hayoga berilgan maqtanchoq odamlarni esa boshqalar xush koʻrmaydi. Siz kamtarni kibr-u hayoga bola bilan doʻst boʻlishni istarmidingiz?

Bolalar: - Yoʻq.

**Tarbiyachi:** - Qanday bola bilan doʻst boʻlishni istaysizlar? Qani, oʻzingizni doʻst boʻlishni istagan bolaning yaxshi sifatlarini aytib beringlar-chi.

**1-bola:** - Aqlli.

**2-bola:** - Saxiy.

**3-bola:** - Mehribon.

**4-bola:** - Odobli.

**Tarbiyachi:** - Juda yaxshi. Endi Hamza Imonberdiyevning “Sir” sheʼrini oʻqib beraman.

## SIR

Hamza Imonberdiyev

Ukasining qaymog'in Ayyor Sayyor yeb qo'ydi.

So'ngra: - Jo'ra, oyimga Aytma, xo'pmi, - deb qo'ydi.

Oqshom Jo'ra maqtanar:

Men va'damdan qaytmayman.

Akam qaynag yeganin,

Oyi, siz qaytmayman.

**Tarbiyachi:** Bolalar, sizlarga she'r yoqdimi? Qani aytinglar-chi, chaqimchilik yo'qmi yomon?

**Bolalar:** Chaqimchilik yomon odat.

**Tarbiyachi:** Siz chaqimchilik qilgan bola bilan do'st bo'lishni istaysizmi?

**Bolalar:** - Yo'q.

**Tarbiyachi:** - Boshingizni qandaydek gap, kimdir sizga sir aytdimi, uni hech kim- ga aytmalik kerak. Boshingizni sir aytmalik to'g'ri emas.

**Tarbiyachi:** - Bolalar, oziq-ovqatdan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz. (Tarbiyachi harakatlarni ko'rsatadi.)

Pis qilinganda,

Yulda qilinganda

Pesin maydonsida

Ish bo'lganda



**Tarbiyachi:** - Bolalar, endi men sizlarga yana bir she'r o'qib beraman.

## YOMON QILIQ

Saida Zunnunova

Qo'ng'iroq tugmasini Erkin bosdi-yu, ochdi.  
Ozgina vaqtdan keyin Bir kampir eshik ochdi.  
Alangladi atrofga, G'udranadi koyinib.  
Unga ko'p malol keldi Erkinning bu "o'yini"  
Hech narsa shu qandek Olisda turar Erkin.  
So'ng bir kuzovozning Oldiga borar sekin.  
Yana bir kuzovozni g'izillab qochar.  
Gohi boshini Albatta, eshik ochar.  
Qaraydiki, yo'q yo'q ketadi gapsiz.  
Lekin bilar, shuni biladobsoz.

**Tarbiyachi:** - Bolalar, shu she'r ramoni to'g'ri ish qildimi?

(Bolalarning javoblarini...

**Tarbiyachi:** - Bolalar, har biringizni shu ishlar haqida bittadan gap ayta-sizlar.

**1-bola:** - Kattalarga salom berish, bu - yaxshi ish.

**2-bola:** - Oyisiga uy ishlarida yordam berish, bu - yaxshi ish.

**3-bola:** - O'yinchoqlarni o'ynab bo'lgach, ularni to'g'rilab qo'yish, bu - yaxshi ish.

**4-bola:** - Buvisining aytganini qilish, bu - yaxshi ish.

**5-bola:** - Har doim shiriso'z bo'lish, bu - yaxshi ish.

**Tarbiyachi:** - Bugungi ta'limiy faoliyatimizni "Oftob ham yaxshi, odob ham yaxshi" she'ri bilan yakunlaymiz.

Oftob yaxshimi, Odob yaxshimi?

Oftob berar nur, Odob-chi - huzur.

Lolalar uchun Oftob yaxshidir,

Bolalar uchun Odob yaxshidir.

Oftob bolmasa, Qorong'u tushar,

Odob bo'lmasa, G'am-qayg'u tushar.

Oftob ko'rinar Tog'-tepalikda,

Odob ko'rinar Salom-alikda.

Odob har kimning Yaxshi so'zida,

Odob har kimning Yuzi, ko'zida.

Odamning yuzi Oftobdan isir,

Odamning yuzi Odobdan isir.

Olamning doim Oftobi bo'lsin,

Odamning doim Odobi bo'lsin.





## **Qurish, konstruksiyalash va matem...**

«Shifoxona quramiz»

**Maqsad:** bolalar tekislikda qurilish binolarini joylash, barqarorligini o'lashni, geometrik shakllarning nomlarini (kub, to'g'ri to'rtburchak, to'rtburchak), shifoxona binosini qurishni o'rganadilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** stol ustida qurish uchun qurilish materiallarini tayda syujetli o'yinchoqlar, daraxtlar va gullar bilan kasalxonani bezatish.

### **Faoliyatning borishi:**

1. Qurilish ko'rinishini tanlash.
2. Qurilish uchun kerak bo'lgan qurilish materiallarini tanlash.
3. Shifoxona qurilishi.
4. Qurilish atrofidagi hududni bezatish.

**Qo'shimcha:** tarbiyachi shifokor va hamshira kasbi haqida so'zlab berishi kerak.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** jamoada ishlash qobiliyatiga, geometrik shakllar va qurilish materiallari to'g'risida nimalarni bilishiga, qurilishning mustahkamligiga, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilishiga ahamiyat beriladi.

### **Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish**

«Shifokor qabulida»

**Maqsad:** bolalar shifokor kasbini, ayrim tibbiyot uskunalari nima uchun ishlatilishini o'rganishlari lozim. (Harorat o'lchagich, shprits, stetoskop va h.k.)

**Kerakli jihoz va materiallar:** shifokor uchun kerakli bo'lgan asboblarni to'plami, qo'g'irchoqlar.

**Faoliyatning borishi:**

1. Rollarni mustaqil ravishda taqsimlash (shifokor, ona bilan qizi h.k.).
2. O'zi o'ylab topgan stsenariyni sahnalashtirish.
3. Mazkur mavzu bo'yicha rollar bilan almashish va yangi syujetni sahnalashtirish.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** o'yin davomida bolalarning o'zaro munosabati, o'yin ishtirokchilari o'zaro munosabat, faol bo'lmagan bolalarning o'yindagi ishtirokiga e'tibor beriladi.

**Til va matn:**

*«Kim bo'lishni xohlaydi»*

**Maqsad:** bolalar kasblarida ma'lumot berish, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchiligini o'zlarining qiziqchiliklarini tushuntirish lozim.

**Kerakli jihoz va materiallar:** kasb egalarining kerakli jihozlari.

**Faoliyatning borishi:**

1. She'rlarni tinglash.
2. «Kasblar» mavzusidagi rasmlarni ko'rish va sharh qilish.
3. Ota-onasining kasbi va ular nima uchun shu kasb egasi bo'lg'risida savol-javob qilish. (Masalan: mening onam - bolalar shifokori bo'lib davolaydi, dori va ukollarni yozib beradilar. Mening otam - avtobus haydovchisi bo'lib o'zlarini ishga va o'qishga olib boradilar).

**Qo'shimcha:** kelajakda kim bo'lishni xohlashlari haqida o'zlarini taklif qilish mumkin.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarning so'z boyligi va o'z fikrlarini ifodalash shakllanganligiga ahamiyat beriladi.

**Fan va tabiat markazi**

*Suvning xususiyatlari*

**Maqsad:** bolalar suvning xususiyatlarini, suv tabiat va insoniyat uchun qanday ahamiyat omil ekanini bilishlari lozim.

**Kerakli jihoz va materiallar:** suv, qum, sham, gugurtlar, mavzu bo'yicha illyustratsiyalar.

**Faoliyatning borishi:**

1. Ut o'chiruvchilarga yordamchi sifatda suv va qumning xususiyatlari bilan tanishish.
2. Tarbiyachi bilan ishlash, olovni o'chirish (yongan shamni suv va qum yordamida o'chirish).
3. Xulosa chiqarish.



**Qo‘shimcha:** rasmlarda «kislorodsiz olovni o‘chirish» tajribasini o‘rganish, kislorod yo‘lini yopib qo‘yish orqali olovni o‘chirish mumkinligini aytish mumkin.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** tajriba o‘tkaza olishiga, qoidalarga qay darajada amal qilishiga, hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilishiga ahamiyat beriladi.

### San‘at markazi

«Mening qahramonim»

**Maqsad:** bolalar o‘t o‘chiruvchi, qutqaruvchi, IIV xodimi, shifokor va boshqa kasb egalari haqida tushunchaga ega bo‘lishlari lozim.

**Kerakli jihoz va materiallar:** qog‘oz, bo‘yoqlar, qalam, mo‘yqalam, suv idishi, turli kasb egalari tasvirlari va kartochkalar.

### Faoliyatning boshqaruvi

1. Kasblar haqida rasmlar ko‘rib chiqish.
2. Rejalash va rasm chizish.
3. Rasmda kasblar haqida qoidalarga e‘tibor qaratishda urg‘u berish.
4. Galereya tashkil etish, rasmlar ko‘rsatish.

**Qo‘shimcha:** tarbiyachi bolalarni o‘z kasbi haqida aytib berishni taklif etishi, ko‘rgazma tashkil etishi va rasmlar ko‘rsatishi.

**Alohida e‘tibor qaratiladi:** rasmlar chizish yoki rasmni qiyofasini tasvirlab berishiga, tartibli, toza ishlashiga, tasavvutning bolalarning rivojlanishiga va mayda qo‘l motorikasini rivojlanishiga ahamiyat beriladi.

